




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIOVIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

11 (49) 2022

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОИЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал

*Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

11 (49)

2022

ноябрь



Received: 15.10.2022

Accepted: 25.10.2022

Published: 15.11.2022

UDK 614:616.1-056.25-084

ORTIQCHA TANA VAZNI VA SEMIZLIK - YURAK QON-TOMIR TIZIMI KASALLIKLARINING YUZAGA KELISHIDA XAVF OMILI SIFATIDA

Omonova G.S., Abdullayev I.K.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

✓ Resume

Ortiqcha tana vazni va semizlik aholi orasida o'nlab noinfeksion kasalliklarning paydo bo'lishida eng yetakchi xavf omillardan biri sanalib, o'ta muhim tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Dunyoda hozirda 250 mln dan ortiq bemor odamlar semizlikdan aziyat chekadilar. Bu degani yer yuzi aholisining 7% degani. Agar holat shu sur'atda davom etsa 2025-2030 yillarga borib semizlik aholi orasida ikki barobarga oshadi degani. JSSTning bergan ma'lumotiga qaganda planetamizda 22 mln 5 yoshgacha bolalar va 155 mln maktab yoshidagi bolalar ortiqcha tana vazniga ega. Keyingi davrlarda bolalar va o'smirlar orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklari yetakchi o'rinni egallab, oxirgi o'n yilliklarda uning tarqalganlik darajasi deyarli 3 barobarga oshgan. Aholi orasida, shuningdek bolalarda ham ortiqcha tana vazni va semizlik oshishi jamiyatda ko'plab noinfeksion, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yurak qon-tomir tizimi, jumladan yurakning ishemik kasalliklari, arterial qon bosimi, miokard infarkti, tserebrovaskulyar kasalliklar, shuningdek qandli diabet va boshqa qator kasalliklarning oshishiga va yasharishiga sabab bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Tana vazni, semizlik, kasalliklar, tarqalganlik, aholi, bolalar, ijtimoiy, ortiqcha, yurak, qon-tomir.

ИЗБЫТОЧНАЯ МАССА ТЕЛА И ОЖИРЕНИЕ - КАК ФАКТОРЫ РИСКА РАЗВИТИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ

Оманова Г.С., Абдуллаев И.К.

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

✓ Резюме

Избыточная масса тела и ожирения является одним из ведущих факторов риска возникновения десятков неинфекционных заболеваний среди населения и является одной из наиболее актуальных проблем, имеющих большое медико-социальное значение. В настоящее время в мире насчитывается более 250 миллионов больных людей, страдающих ожирением. Это означает 7% населения мира. Если ситуация будет продолжаться такими темпами, то к 2025-2030 годам ожирение среди населения удвоится. По данным ВОЗ, 22 миллиона детей в возрасте до 5 лет и 155 миллионов детей школьного возраста на планете имеют избыточный вес. В последние годы сердечно-сосудистые заболевания стали ведущей причиной смерти детей и подростков, а за последние десятилетия их распространенность увеличилась почти втрое. Увеличение избыточной массы тела и ожирения у населения, в том числе, у детей привело к увеличению и омолаживанию в обществе многих неинфекционных и социально значимых болезней, таких как сердечно-сосудистые заболевания, среди которых ишемическая болезнь сердца, повышенное артериальное давление, инфаркт миокарда, цереброваскулярные заболевания, а также сахарный диабет и ряд других заболеваний.

Ключевые слова: масса тела, ожирение, заболевание, распространенность, население, дети, социальные, избыточная масса тела, сердечно-сосудистые заболевания, фактор риска.



OVERWEIGHT AND OBESITY - AS A RISK FACTOR FOR THE DEVELOPMENT OF DISEASES OF THE CARDIOVASCULAR SYSTEM

Omanova G.S., Abdullaev I.K.

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy

✓ Resume

Overweight is one of the leading risk factors for dozens of non-communicable diseases among the overweight and obese population and is one of the most urgent problems of great medical and social importance. Currently, there are more than 250 million obese people in the world. This means 7% of the world's population. If the situation continues at this rate, this means that obesity among the population will double by 2025-2030. According to WHO, 22 million children under the age of 5 and 155 million school-age children worldwide are overweight. In recent years, cardiovascular disease has become the leading cause of death in children and adolescents, and its prevalence has nearly tripled in recent decades. The increase in overweight and obesity in the population, as well as in children, has led to an increase and rejuvenation in society of many non-communicable, socially significant diseases such as cardiovascular diseases, including coronary heart disease, high blood pressure, myocardial infarction, cerebrovascular diseases, as well as diabetes and a number of other diseases.

Key words: body weight, obesity, disease, prevalence, population, children, social, overweight, cardiovascular disease, risk factor.

Dolzarbligi

Bugun ortiqcha tana vazni va semizlik aholi orasida o'nlab noinfektsion kasalliklarning paydo bo'lishida eng yetakchi xavf omillardan biri sanalib, o'ta muhim tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Dunyoda hozirda 250 mln dan ortiq odamlar semizlikdan aziyat chekadilar. Bu degani yer yuzi aholisining 7% degani. Agar holat shu sur'atda davom etsa 2025-2030 yillarga borib semizlik aholi orasida ikki barobarga oshadi degani. Agar bu ko'rsatkichlarga 2000 yil ma'lumotlari bilan taqaslaganda AQSH larida katta yoshli aholi orasida 45-50%ni, Avstraliyada 30-40%ni, Buyuk Britaniyada 20%ni tashkil etadi. SHu bois JSST tomonidan semizlik noinfektsion kasalliklar "epidemiya" deb tan olingan [1]. Ta'kidlashicha, planetamizning 30% ga yaqin aholisi, ya'ni 2 mlrd odam ortiqcha tana vazniga ega. Bu ko'rsatkich istiqbolda 2030 yilga borib 70%ga yetishi mumkin. Natijada semizlik va uning asoratlaridan yer qurrasida bir milliondan ortiq kishi vafot etadi. Muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalariga qaraganda o'rganilgan 7-15 yoshli bolalarda kattalarga nisbatan semizlik 1,5-2 martaga yuqori bo'lgan. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda 25% o'spirinlar ortiqcha tana vazniga ega va 15% i semizlikdan aziyat chekadilar [2,3]. A.K.Beisbekova, A.N.Baytenova va b. larning (2017) [3] ilmiy xulosalarda bugun yer qurrasida 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida ularning 22 millionida va 155 million maktab yoshidagi bolalarda ortiqcha tana vazni borligi aniqlangan. Muallifning ta'kidlashicha rivojlangan davlatlarda 20-30% bolalarda ortiqcha tana vazni mavjudligi aniqlangan va bugun semizlik butun jamiyat va sog'liqni saqlash tizimlari oldida turgan 21-chi asrning eng xavfli omillaridan biri deb tan olingan. Bu kabi bolalarda ular katta bo'lganlarida ham semirishga moyillikning paydo bo'lish ehtimolligi va qator noinfektsion kasalliklar, qandli diabet, yurak qon-tomir tizimi kasalliklar darajasi yuqori bo'layotganligi kuzatilmoqda.

Mavzuning asosiy **maqsadi** - mamlakatimizda va chet ellarda aholi orasida ortiqcha tana vazni va semizlikning yurak qon-tomir kasalliklari va uning asoratlari, nogironlik va o'limning tarqalganlik darajasini adabiyotlarni taxlil qilish orqali o'rganish va baholashdan iborat.

Keyingi davrlarda bolalar va o'smirlar orasida yurak qon-tomir tizimi kasalliklar yetakchi holatni egallab, oxirgi o'n yilliklarda uning tarqalganlik darajasi deyarli 3 barobarga oshgan. Buning asosiy sabablaridan biri bolalar va o'smirlar ichida kamharakatlilikning keng tarqalishi (64-75%) va natijada ular orasida semizlik, qolaversa uning eng asosiy asoratlaridan biri aynan qon aylanish tizimi kasalliklarning oshishi bilan namoyon bo'lmoqda. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga qaraganda o'rtacha Rossiya Federatsiyasida o'g'il bolalarda 11% ida ortiqcha tana vazni va 3% ida semizlik kuzatilsa, qiz

bolalarda mos ravshda bu ko'rsatkichlar -7,7% va 1,6% ni tashkil etadi. Amalga oshirilgan anketa so'rov natijasi bo'yicha Rossiyada 38% o'spirinlar sport to'garaklarida qatnashadilar (50% o'g'il bolalar va 31% qiz bolalar). Ko'proq 12-14 yoshdagilar shug'illansalar, nisbatan kamiroq 17-18 yoshdagilar shug'ullanadilar [4,7]. L.S.Namazova-Baranova, K.I.Eletskeya va b. larning (2018) [5,8] ilmiy taxlil xulosalari bo'yicha, Rossiyada bolalar va o'smirlar orasida ortiqcha tana vaznga ega bo'lganlar 11 va 15 yoshdagi o'g'il bolalarda mos ravishda 34 va 21,5% ga teng bo'lgan bo'lsa, qiz bolalarda bu ko'rsatkich 23,5 va 22,2%ga teng bo'lgan. Mualliflarning ta'kidlashlaricha semizlik o'g'il bolalar orasida qiz bolalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori.

Rossiyaning Tyumen viloyatida o'tkazilgan ilmiy izlanish xulosasiga ko'ra, 2017 yilda 2008 yilga nisbatan kichik maktab yoshidagi bolalar orasida semirish 2,4 marotabaga yuqori bo'lganligi ta'kidlanadi (2008 y. -6,7%, 2017 y. -15,8%). Ortiqcha tana vazni va semizlik 2017 yilda o'g'il bolalarda (40,0%), qiz bolalarga nisbatan yuqori ekanligi qayd etilgan (30,3%), xuddi shunday holat 2008 yilda ham kuzatilgan. E'tiborli jihati shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalarda vazn yetishmaslik holati o'rganilgan va 2008 yildan 2017 yilgacha 21,2% dan 7,9% gacha kamayshi kuzatilgan [6]. M.A.Larionova, T.V.Kovalenkolarining (2019) [7,13] ta'kidlashlaricha Rossiyaning Udmurt respublikasida 2005-2016 yillarda semirish holatining ko'payish sur'ati 0-14 yoshdagi bolalarda -11,3% ni va 15-17 yoshdagi o'spirinlarda esa -21,9% ni tashkil etgan. Uning tarqalganlik darajasi esa har 1000 0-14 yoshdagi bolalarda -2,2ga, 15-17 yoshdagilarda -2,4 dan to 14,0 gacha ekanligi qayd etiladi. Mualliflarning ta'kidlashlaricha, ortiqcha tana vaznning tarqalganlik darajasi har 1000 o'rganilganlarga nisbatan -166,5 ni, semirish esa -67,1 ni tashkil etgan. Semizlikning 60,5% ini I darajali, 26,2% ini II darajali va 2,0% ini III darajali holatlar tashkil qilgan. O'rganilgan adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Rossiyaning deyarli ko'pchilik viloyatlarida bolalar va o'smirlar orasida ortiqcha tana vaznga ega bo'lganlar va semizlik kasalligining tarqalish darajasi yuqori va o'sish an'anasi kuzatilgan. Balalar orasida, shuningdek kattalarda ham semirish bo'yicha yetakchilikni AQSH egallaydi. Salomatlik statistikasi milliy markazining (AQSH) ma'lumotlariga qaraganda 2010 yilda 6-11 yoshdagi bolalarning 13%ida semirish kuzatilgan. Hozirgi vaqtda mamlakatda bolalar orasida eng yuqori darajadagi semizlik aynan shu yerda kuzatilib, har 6 tadan bitta bolada semizlik va har 3 ta boladan bittasida ortiqcha tana vazni borligi kuzatilgan [8]. Mualliflarning ta'kidlashicha, bugun butun dunyoda bolalar va o'smirlar orasida ortiqcha tana vazn va semizlik falokatli ko'rinishda oshib bormoqda va uning asoratlari kelajakda bolalar salomatligida o'z aksini topadi.

JSSTning baholashicha, yer qurrasida 600 mln dan ortiq odamlarni semizlik kasalligi qamrab olgan va istiqbolda 2030 yilga borib bu daraja 1 mlrd kishiga yetishi aytiladi. E'tiborli jihati shundaki, keyingi 35 yil davomida semizlikni kamaytirishga erishilmadi. AQSHlarida 32% erkaklar va 34% ayollar semizlikdan aziyat chekayotgan bir paytda, G'arbiy Yevropada har ikkala jinslarda semizlik 21% ni tashkil etgan. 2030 yilga borib AQSH larida semizlikning tarqalganligi 40-50% ga yetishi aytilmoqda. 2021 yilda Rossiyada o'tkazilgan ilmiy tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, semizlik nisbatan ayollarda yuqori. Aholining semirish jarayonida jins omillari bilan bir vaqtda aholining ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarning ham ta'siri mavjud ekanligi aniqlangan. Ayniqsa ayollarning semirishiga ularning ovqatlanish omillari, shahar va qishloqlarda yashashlari, ayollarning ma'lumoti, aholi punktlarning turlari, yashash joylaridagi aholining soni sezilarli ta'sir ko'rsatgan. E'tiborli jihati shundaki, semizlik qishloq aholisi orasida aholi sonining oshishi bilan oshib borishi kuzatilgan va buning sabablarini aniqlashda mualliflar qo'shimcha ilmiy taxlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [9]. Smolensk shahrida Ye.A.TSukareva, A.V.Avchinnikov va b. larning (2018) [10]. Ilmiy tadqiqot natijasida 592 bolada (16,1%) ortiqcha tana vazni va 338 ta bolada (9,2%) semizlik holati borligi qayd etilgan. (Jami o'rganilgan o'quvchilar soni 3696 ta) Semizlik mavjud bolalarning 182 tasida (53,8%) I darajadagi, 88 tasida (26,0%) II darajadagi, 62 tasida (18,3%) III darajadagi va 6 tasida (1,8%) IV darajadagi semizlik kuzatilgan. Mualliflarning xulosasiga qaraganda ortiqcha tana vazni 1 sinfdan (13,7%) 4 sinfgacha (21,5%) oshib borgan. Semirish darajasi o'g'il bolalarda 2 marotaba ko'p ekanligi kuzatilgan.

Ortiqcha tana vazni va semizlik aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida, jumladan bolalarda ham kelgusida yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining ko'payishida eng asosiy omillardan biri sifatida saqlanib qolmoqda, e'tiborlisi shundaki, bu xavfli omilning ta'sir darajasi butun dunyo mamlakatlarida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, jumladan mamlakatimizda ham ko'payish

xususiyatiga ega. Keyingi yillarda Rossiyada yurak qon-tomir kasalliklarining (YuQTK), ayniqsa arterial qon bosimi, yurakning ishimik kasalliklarining tarqalish darajasi yuqori. 2005 yilda YuQTKlari sababli 1 mln kishi, 2009 yilda 1 mln 136,7 ming kishi vafod etgan va bu umumiy o'limning 56,5% ini tashkil etgan. AQSHlarida 2008 yilda bu ko'rsatkich 811,9 ming kishini tashkil etib jami o'lim sabablarining 32,3% ini tashkil etishi qayd etiladi. YuQTKlaridan yuzaga kelgan o'limning yarimidan ko'pi yurakning ishimik kasalliklariga (YuIK) to'g'ri kelib, umumiy o'limning 25,6% ini tashkil etgan. Omsk viloyatida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasiga qaraganda arterial qon bosimi (AQB) kasalligi YuQTKlarining 52,1% ini, YuISH lari 24,2% ini, tserebrovaskulyar kasalliklar 11,7% ini tashkil etganligi ta'kidlanadi. Rossiyada YuQTKlaridan o'lim Yevropa mamlakatlaridan 3,5 marotabaga yuqori ekanligi qayd etiladi [11]. Rossiyaning CHelyabinsk viloyatida 2005-2014 yillarda YuQTKlarining tarqalishi o'rganilganda, kasallikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarga qaramasdan Rossiyada murojaatlar bo'yicha kasallik nisbatan yuqori darajada tarqalgan viloyatlar qatorida saqlatib qolayotganligi ta'kidlanadi va har 1000 aholiga 159,4 tadan 226,3 gacha ro'yhatga olinganligi qayd etiladi. Ayniqsa AQB kasalligi 2005 yilga nisbatan 7 barobarga oshgan (11,5 dan 87,0 ta har 1000 ta ahliga) [12]. 2021 yilda Rossiyaning 17 ta xududida amalga oshirilgan ilmiy o'rganishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar va o'smirlar orasida semirish, ortiqcha tana vazni, giperxolesterinemiya va arterial qon bosimining oshishi 6-17 yoshlilarda mos ravshda 6,9. 18,2. 3,0 va 5,0% larga, xuddi shu ko'rsatkich o'g'il bolalarda 5,3. 15,9. 4,1 va 4,8 % larga teng bo'lganligi aniqlangan. E'tiborli jihati shundaki, arterial qon bosimining oshishi, semirish va ortiqcha tana vazniga ega bo'lgan 10-12 yoshdagi o'g'il bolalarda nisbatan yuqori bo'lgan, giperxolesterinemiya esa 14 yoshdagi qizlarda yuqoriligi kuzatilgan [14].

A.K.Ibraeva, A.X.Ribalkina va b. (2019) larning Qozog'iston respublikasida 2011-2014 yillarda amalga oshirilgan ilmiy izlanish natijalariga qaraganda, mamlakatda tibbiyot xizmati sifati yaxshilanishi sabab qon aylanish tizimi kasalliklaridan o'lim kamayishi ta'kidlanadi. O'lim sabablariga ko'ra tserebrovaskulyar kasalliklar va YuIK lari yetakchilik qilishi aniqlangan. A.T.Ayipxanova M.K.Turg'anova va b.larning (2019) ma'lumotlariga qaraganda Qozog'istonda YuQTKlaridan o'limning tarkibida ham ayrim o'ziga xosliklar kuzatilib, YuIKlari - 37,2%ni, bosh miya qon tomirlar faoliyatining buzulishi -36,4%ni, AQB - 2,5%ni, o'tkir infarkt miokard -6,3%ni, boshqa kasalliklar -17,6%ni tashkil etganligi aniqlangan [15,16]. YuQTKlarining yetakchi asoratlaridan eng asosisi bu nogironlik va o'lim sanaladi. Bu holat bugun nafaqat mamlakatimizda balki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'ta muhim tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biridir. Yu.I.Zaxarchenko, T.G.Gubskaya va b.larning (2015) [17]. tadqiqot xulosalariga qaraganda YuQTKlaridan birlamchi qayd etilgan nogironlar soni -2007 yilda Krasnadar o'lkasida -259600 kishini, o'rtacha har yiliga 4326 nogironni tashkil qilgan. O'rganilgan 6 yil davomida YuQTKlarida birlamchi va qayta aniqlangan nogironliklarning darajasida kamayish an'anasi kuzatilgan. Muallifning xulosasiga ko'ra I guruh nogironligi nisbatan kam kuzatilgan. O'rganilgan 6 yil davomida II guruh nogironlik (60%), yuqori darajada bo'lsada kamayish xususiyati qayd etilgan, ammo III guruh nogironligi oshgan. YuQTKlaridan nogironlikning aholi orasida har 10 000 aholiga tarqalganlik darajasi II guruh 2007 yilda-24,9 va 2012 yilda -15,1ni, o'rtacha 20,0 ni, III guruh 2007 yilda-15,9 va 2012 yilda -14,5ni, o'rtacha 15,8 ni tashkil qilgan. YuQTKlari sababli birinchi marta nogironlikka chiqqanlar Krasnodar o'lkasida 1996 yilga nisbatan 2010 yilda o'sish xususiyati kuzatilgan. (25,85%dan 31,11%gacha) [17,18]. N.L.Kardakovning (2007) ilmiy xulosasi shuni ko'rsatadiki, Rossiyada 1996-2005 yillarda YuQTKlaridan nogironlik ayniqsa nafaqa yoshdagilar orasida (1996 - 46,5dan 2005 yilda -109,9 har 10 000 aholiga) o'sish kuzatilgan [19]. Tojikiston Respublikasida YuIKlari har 100 000 aholiga 2010 yilda -185,5ta, 2011 yilda -179,5ta va xuddi shu davrda Respublikada YuQTKlaridan 2010 yilda- 6450ta, 2011 yilda -1976 holat nogironlik qayd etilgan. Nogironliklarning 1,0%ini I guruh, 45,0%ini II guruh va 53,3%ini III guruh nogironlari tashkil etganligi qayd etiladi [20]. Ko'plab mualliflarning ta'kidlashlaricha YuQTKlaridan o'lim darajasi bilan kasallanish o'rtasida kuchli va tug'ri korrelyatsion bog'lanish mavjud. Krim respublikasida aholi orasida 2014-2017 yillarda YuQTKlari va undan o'lim taxlil qilinganda, kasallanish sezilarli darajada kamayishi bilan ayniqsa YuIKlaridan, arterial qon bosimi va tserebrovaskulyar kasalliklardan o'limning ham kamayishi kuzatilgan. SHu bilan birga kasallanish va o'limdan ko'rilgan iqtisodiy zarar hisoblanganda jami 75,9 mln mehnatga layoqatli aholida VVPning miqdori 2017 yilda 92037,2 mlrd rubilni tashkil etgan

Dunyoning ko'plab davlatlarida (kam daromadli davlatlarni hisobga olmaganda) o'lim sababiga ko'ra YuQTKlari yetakchilik qilmoqda [22]. Ushbu ko'rsatkich AQSHda-32,3-36,6%, Slovakiyada - 53,8%, Bolgariyada-65,2%, Moldova Respublikasida-57,9%, Ukrainada-67,3%, Belarusiyada-55,5%, Pol'shada-45,1%, Rossida 50,1% ga teng [23,27]. Buryatiya Respublikasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalariga qaraganda, umumiy olganda YuQTKlarining kamayishi kuzatilsada, YuIKlari darajasi yuqoriligicha saqlanib qolayotganligi qayd etiladi [24]. A.V.Danilov, I.I.Kobzar va b.larning (2019) [25] xulosalariga qaraganda Rossiya Federatsiyasining har xil xududlarida ijtimoiy-iqtisodiy, iqlim, ekologik va geografik sharoitlarning har xilligi bois aholi orasida YuQTKlarining tarqalish darajasi xam har xilligi qayd etiladi. Kemerova viloyatida qon aylanish tizimi kasalliklarining barcha turlari bo'yicha o'lim pasaygan [26,33]. Muallifning xulosasicha, aholi orasida YuQTKlari bo'yicha birlamchi va umumiy kasallanishlar ichida asosan yurakning ishemik kasalliklari, arterial qon bosimi va tserebrovaskulyar kasalliklar yetakchi o'rinlarni egallashi ta'kidlanadi. Riyazan viloyatida YuQTKlarida o'lim umumiy Rossiya Federatsiyasining o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriligi qayd etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar mos ravshda 602,6 va 591,7 har 100 000 aholiga. Muallifning fikricha xududda YuQTKlar va ulardan o'limning keyingi yillarda kamayishi ta'kidlanadi.

YuQTKlarining kechishidagi yana bir eng asosiy xususiyatlardan biri bu o'limning yuqoriligi sanaladi. Rossiya Federatsiyasining Bashkirdstan Respublikasida 2002-2015 yillarda YuQTKlaridan o'lim birinchi o'rinni egallab, jami 40385 kishi vafot etib umumiy o'limning 52%ini tashkil etgan. E'tiborlisi shundaki, YuIKlaridan 216714 kishi vafot etgan va ularning 45602 tasi mehnatga yaroqli, infarkt miokarddan 13587ta ularning 3278 tasi mehnatga yaroqli va tserebrovaskulyar kasalligidan 132337 va ularning 11916 tasi mehnatga yaroqli aholi bo'lgan. YuQTKlaridan o'lganlarning 63,2%i 70 yosh va undan kattalarga to'g'ri kelgan. E'tiborli jihati shundaki, YuQTKlaridan mehnatga yaroqli aholi orasida o'limning oshishi kuzatilgan. (12,3 dan 22,3%gacha). O'lim erkaklar orasida ayollarga nisbatan 1,6-2,0 marotaba yuqoriligi qayd etilgan. [27] mualliflarning ta'kidlashlaricha YuQTKlaridan o'lim Bashkirdstan Respublikasida 2002-2015 yillarda kamayish an'anasiga ega ekanligi aytiladi.

1970 yillarga kelib boshqa rivojlangan mamlakatlardagi kabi Rossiyada ham yuqumli kasalliklar o'lim sabablar bo'yicha o'zining ta'sirini yo'qatdi, ammo YuQTKlari, o'smalar va tashqi ta'sirlar natijasida o'lim darajasi yuqoriligicha saqlanib qoldi. Ushbu davrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qayd qilingan sabablar natijasida o'lim 70% va keyingi yillarda o'sdi va bu ko'rsatkich Rossiyada shu davrda 80%ga yetgan. Bu o'z navbatida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [28]. S.S.Yakushin va Ye.V.Filippovlarning (2018) [29] ilmiy xulosalarining taxlili shuni ko'rsatdiki, yer qurrasida 2010 yilda YuQTKlaridan jami 16 mln kishi vafot etib, 293 million yil umr yo'qatilgan. Muallifning xulosasiga ko'ra, YuQTKlaridan o'lim darajasida pasayish an'anasini mavjud va bu holatni kasalliklarni o'z vaqtida ro'yhatga olish, odamlarning YuQTKlari profilaktikasiga nisbatan munosabatlarining o'zgarishi, muntazam o'tkazilayotgan tibbiy ko'riklar, aholini dispanserizatsiya qilish tadbirlari bilan tushuntiriladi. Ammo, regionda qon aylanish tizimi kasalliklarining tarqalish darajasi o'sish xususiyatiga ega.

M.A.Starinskaya, I.V.Samorodskayalarning (2017) [30,31] ilmiy fikrlaricha, aholi orasidagi YuQTKlari bilan kasallanish va o'lim to'g'risidagi statistik ma'lumotlar har doim ham jamiyatda ushbu holatlar bo'yicha kechayotgan jarayonlarni haqqoniy ta'riflay olmaydi va buning ko'plab ob'ektiv va subektiv sabablari juda ko'p. Kasalliklarni oldindan va o'z vaqtida aniqlanmasligi, belgilangan tartibda ro'yhatga olinmasligi, kasalliklarning xalqaro klassifikatsiyasidagi kamchiliklar, kasallanish va o'lim to'g'risidagi hisob va hisobot xujjatlarining to'laqonli yuritilmasligi, o'lim to'g'risidagi guvohnomaning hozirgacha qo'lda to'lg'azilishi va boshqa sabablar Rossiyada YuQTKlarida o'lim to'g'ristidagi statistik hisobotlarning ishonchsizlik darajasini oshiradi [34].

Alohida ta'kidlash lozimki, Rossiya Federatsiyasida 2001 yildan boshlab aholi orasida YuQTKlar bilan kasallanish va o'limning darajasi kamayib bordi, ushbu holatni mualliflar mamlakatda kasalliklarni kamaytirishga yo'naltirilgan yirik dasturlarning ishlab chiqilishi va ularning amalga oshirilishi bilan tushuntiradilar. Buning ustiga 2006 yildan boshlab "Salomatlik" dasturi ham ishlab boshladi. [32]. Yuqorida o'rganilib taxlil qilingan ilmiy manbalardagi ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

Xulosalar

1. Dunyoning asosan rivojlangan davlatlarida, jumladan O'zbekistonda ham aholi orasida, shuningdek bolalarda ham ortiqcha tana vazni va semizlikning darajasi yuqori va ko'pchilik mamlakatlarda bu jarayonning oshib borishi kuzatilmoqda.

2. Aholi orasida aholi orasida, shuningdek bolalarda ham ortiqcha tana vazni va semizlik oshishi jamiyatda ko'plab noinfektsion, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yurak qon-tomir tizimi, jumladan yurakning ishimik kasalliklari, arterial qon bosimi, infark miokard, tserebrovaskulyar kasalliklar, qandli diabet va boshqa qator kasalliklarning oshishiga va yasharishiga sabab bo'lmoqda.
3. O'rganilgan adabiyotlar va statistik materiallardan shu holat ma'lum bo'ldiki, ortiqcha tana vazni va semizlik va uning asoratlari bo'lmish YuQTKlari, endokrin kasalliklarining tarqalishidagi tibbiy-ijtimoiy jihatlarni ilmiy o'rganishlar aksariyat hollarda chet ellarda nisbatan ko'proq amalga oshirilgan, O'zbekistonda, jumladan tadqiqot amalga oshirilishi rejalashtirayotgan Xorazm viloyatida bu kabi ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan.
4. Mamlakatimizda, Xorazm viloyati aholisi orasida, jumladan bolalarda ham ortiqcha tana vazni va semizlik holatlarining keyingi yillarda oshishi va yasharishi bois, ushbu yo'nalishda viloyat aholi orasida ortiqcha tana vazni va semizlik sababli aholi orasida kun sayin ko'payib borayotgan yurak qon-tomir tizimi kasalliklarining tarqalishidagi tibbiy-ijtimoiy jihatlarni ilmiy o'rganish bugunning eng dolzarb masalalaridan bir sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Всемирная организация здравоохранения. Проблема ожирения в Европейском регионе ВОЗ и стратегии ее решения. Дания. 2007.
2. Рахимов Б.Б. Особенности заболеваемости детей и подростков республики Узбекистан, страдающих ожирением //Гигиена и санитария,2017.-№96(3).-С.274-277.
3. Беисбекова А.К., Байтенова А.Н, Датхабаева Г.К. Избыточная масса тела и ожирение у детей:: причины, последствия, профилактика //Вестник КазНМУ..-№1.-2017.-С.178-180.
4. Скотникова Ю.В., Архангельская А.Н и др. Избыточная масса тела и гиподинамия как факторы риска развития патологии сердечно-сосудистой системы у детей и подростков //Вестник новых медицинских технологий.- 2016.-Т.23.-№1.-С.71-75.
5. Намазова-Баранова Л.С., Елецкая К.И., Кайтукова Е.В., Макарова С.Г. Оценка физического развития детей среднего и старшего школьного возраста: анализ результатов одномоментного исследования //Педиатрическая фармакология, 2018.-Том 15).-№4.-С.333-342.
6. Суплотова Л.А., Сметанина С.А. и др. Динамика частота избыточной массы тела и ожирения у детей младшего школьного возраста в Тюменском регионе //Ожирение и метаболизм, 2019.-№16(1).-С.34-38.
7. Ларионова М.А., Коваленко Т.В. Эпидемиологические особенности ожирения у детей и подростков в Удмуртской республики //Ожирение и метаболизм, 2019.-№16 (1).-С.47-54.
8. Помогайбо Е.Г. Распространенность избыточного веса и ожирения по данным антропометрических характеристик школьников 6-17 лет г. Харкова //Медицинский журнал Западного Казахстана, 2016.-№3(51).-С.39-41.
9. Мартинчук А.Н., Лайкам К.Н. и др. Распространение ожирения в различных социально-демографических группах населения России //Вопросы питания, 2021.- Том 90.-№3.-С.67-76.
10. Цукарева Е.А., Авчинников А.В. и др. Гигиеническая оценка распространенности избыточной массы тела и ожирения у младших школьников г.Смоленск //Вестник Смоленской государственной медицинской академии, 2018. Т.17.-№2.-С.41-46.
11. Щербеков Д.В. Заболеваемость и смертность взрослого населения Омской области от болезней системы кровообращения //Проблемы социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины, 2016. №24(4).-С.213-216.
12. Москвичева М.Г., Белова С.А. и др. Региональные особенности заболеваемости и смертности от болезней системы кровообращения //Кардиоваскулярная терапия и профилактика, 2016. №15(4).-С. 66-69.
13. Артамонова Г.В., Максимов С.А. и др. Динамика факторов сердечно-сосудистого русла у жителей Сибирского региона //Рациональная фармакотерапия в кардиологии, 2021.-№13(3).-С.362-368.
14. Трунина И.И., Буланова Н.А. и др. Распространенность факторов риска развития сердечно-сосудистых заболеваний у детей и подростков по данным центров здоровья //Российский вестник перинатологии и педиатрии, 2021.-№ 66(20).-С.69-77.
15. Ибраева Л.К., Рыбалкина Д.Х. и др. Медико-социальные потери лет от заблеваний системы кровообращения в промышленных регионах Казахстана //Медицина труда и промышленная экология, 2019.-№ 59(7).-С.444-448.

16. Айыпханова А.Т., Турганова М.К. и др. Комплексная оценка болезней системы кровообращения в Республике Казахстан //Journal of Health Development. 2019. Volume 2. Number 31.-77-84.
17. Захарченко Ю.И., Губская Т.Г., Чикинова Л.Н. Основные тенденции показателей общей инвалидности вследствие ишемической болезни сердца в Краснодарском крае //Медико-социальная экспертиза и реабилитация ,2015.-Том 18.-№2.-С.29-31.
18. Болотова Е.В., Терщенко Т.В., и др. Динамика первичной инвалидности вследствие болезней системы кровообращения в Краснодарском крае //Социальная экспертиза и реабилитация , 2012.-№4.-С.32-36.
19. Кардаков Н.Л. Уровень первичной инвалидности вследствие болезней системы кровообращения в Российской Федерации за 10 лет (1996-2005гг.) //Российский кардиологический журнал, 2007.-№3(65).С.74-76.
20. Суфишоев Г., Одинаев Ф.И.,и др. Аспекты первичной инвалидности вследствие ишемической болезни сердца в республике Таджикистан //Доклад академии наук Республики Таджикистан, 2013. том 56.(8). С.667-670.
21. Яшенко С.Г., Козуля С.В., и др. Болезни системы кровообращения в республике Крым: заболеваемость, смертность, экономические потери //Таврический медико-биологический вестник, 2019.-том.22.-№3.-С.78-85.
22. Стародубов В.И., Улумбекова Г.Э. Здравоохранение России: проблемы и решения. ОРГЗДРАВ Новости. Мнения. Обучение. //Вестник ВШОУЗ. 2015;№1(1).-С.12-27.
23. Аскаров Р.А., Давлетшин Р.А., Асарова З.Ф. и др. Уровен и структура смертности от болезней системы кровообращения в регионах Респубрики Башкирдстан (2002-2015гг.). Здравоохранения Россиской Федерации,2017.-№61 (6).-С.300-308.
24. Будаев Б.С., Кицул И.С. и др. Анализ показателей заболеваемости и смертности населения от болезней системы кровообращения //Проблема социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины, 2021.-№29 (4).-С.865-870.
25. Данилов А.В., Кобзарь И.И., и др. Заболеваемость и смертность от сердечно-сосудистых заболеваний в Рязанской области: 2014-2018гг. //Наука молодых (Eruditio Juvenium). 2019.-т.7. №3.-С.439-449.
26. Макаров С.А., Максимов С.А. Смертность от болезней системы кровообращения в Кемеровской области и Российской Федерации в 2000-2016 годах //Наука о здоровье, 2019.-С.611.
27. Аскаров Р.А., Давлетшин Р.А. и др. Уровень и структура смертности от болезней системы кровообращения в регионах республики Башкортостан (2002-2015гг.) //Здравоохранение Российской Федерации, 2007.-№61(6).-С.300-308.
28. Вешневский А., Андреев Е., Тимонин С. Смертность от болезней системы кровообращения и продолжительность жизни в России //Демографическое обозрение, 2016.-№1.-С.6-34.
29. Якушин С.С.,Филиппов Е.В. Анализ смертности и болезней системы кровообращения и сердечно-сосудистой заболеваемости в Рязанской области за период 2012-2016 гг. //Наука молодых (Eruditio Juvenium). 2018.-Т.6.-С. 448-461.
30. Старинская М.А., Самородская И.В. и др. Нозологическая структура смертности и потерянных лет жизни от болезней системы кровообращения в экономически активном возрасте //Медицинские технологии. Оценка и выбор,2017.-№1.-С.23-33.
31. Кондрикова Н.В., Самородская И.В. и др. Динамика показателей смертности от болезней системы кровообращения в Кемеровской области за период 2006-2014гг. /Medicine, 2017.-Т.16.-№1.-С.2-30.
32. Головенкин С.Е., Артюхов И.П. Динамика смертности от болезней системы кровообращения в Красноярском крае //Сибирское медицинское обозрение, 2014. №6.-С.70-74.
33. Артамонова Г.В., Максимов С.А.,и др. Тенденции смертности населения трудоспособного возраста от болезней системы кровообращения в Российской Федерации и Кемеровской области //Здравоохранение Российской Федерации, 2015. №4.-С.19-24.
34. Васман Д.Ш., Александрова Г.А. и др. Достоверность показателей и структуры причин смерти от болезней системы кровообращения в Российской Федерации при международных сопоставлениях //Современные проблемы здравоохранения и медицинской статистики, 2019.-№3.-С.87-102.

Qabul qilingan sana 15.10.2022